

# MUZRABOT TUMANIMIZ TARIXI



**Muzrabot tumani** – Surxondaryo viloyatidagi tuman. 1968-yil 25-dekabrda tashkil etilgan. 1994-yilgacha *Gagarin tumani* deb yuritilgan. Viloyat hududining eng janubiy qismini egallaydi. Shimolida viloyatning Sherobod va Qiziriq, sharqda Angor tumanlari, janubi-sharqda Termiz tumani, janubida Amudaryo orqali Afgʻoniston, gʻarbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni – 0,74 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Tumanda 37 ta mahalla mavjud. Bundan tashqari u yerda bitta gazeta “Muzrabot” gazetasi faoliyat yuritadi. Markazi – Xalqobod qoʻrgʻoni.

## Aholisi.

Tuman aholisi — 2024-yil holatiga koʻra 151 400 kishi. Shundan erkaklar — 74 ming 519 kishi, ayollar esa — 76 ming 881 kishi, shahar aholisi — 56 556 kishi, qishloq aholisi esa — 94 844 kishini tashkil qilgan.

## Etimologiyasi.

Muzrabot toponimi – *muz* va *rabot* soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. *Muz* – suvning qattiq kristall holati va u harorat 0 °C dan pasayganda hosil boʻladi. Ayrim holatlarda muz soʻzi sovuq maʼnosida ham keladi. *Rabot* esa dastlab islom dini tarqala boshlagan davrlarda harbiylarga moʻljallab qurilgan bino, istehkom, keyinchalik karvonsaroy (mehmonxona) maʼnosida qoʻllanilgan. Markaziy Osiyoda VIII — X asrlarda koʻchmanchi aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh joylarda koʻplab rabotlar barpo etilgan. Oʻrta asrga oid shaharlarning savdo va hunarmandchilik doʻkonlari joylashgan qismini ham rabod (ravot) deb atashgan va bu soʻz VIII — IX asrlarda fors, tojik, oʻzbek tillariga oʻzlashgan. Shu bois, bu geografik termin Markaziy Osiyo, Eron va Afgʻoniston hududida keng tarqalgan. Rabot termini koʻplab joy nomlarini ham hosil qilgan.

# Muzrabotning madaniy meroslaridan

## Muzrabot ota ziyoratgohi



# Kampirtepa: yo`qolgan tamaddun izidan...

## Yoxud Oksiana Iskandariyasi yodgorligi



- ✗ Qadimiy Termiz yaqinida o`nlab asrlarning taloto`piga guvoh bo`lgan ko`hna shahar xarobalari joy olgan. Bu xarobalar bir paytlar fotix Iskandar Maqduniy (er.avv 356-323) tashabbusi bilan qadim Baqtriya hududida qurilgan, haligacha o`rni to`liq aniqlanmagan Oks Iskandariyasi bo`lishi mumkin.

# SOPOLLITEPA YODGORLIGI



Sopollitepa “Sovetabod” savxozining markazida joylashgan bo‘lib, u SHerabot-Beshquton cho‘lining o‘zlashtirilishi munosabati bilan olib borilgan arxeolog qidiruv vaqtida topildi. Sopollitepaning markaziy qal’a qismi 82x82 metr kvadrat shaklida bo‘lib, undan 150 dan ko‘proq uy-joy binolari qoldig‘i, 8 ta ko‘cha, sopol pishiradigan 18 ta xumdon, 60 ta xo‘jalik o‘chog‘i va 138 ta qabr topilib o‘rganilgan.